2026-yil
8-son

FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 378.1:316.3

Mamadaliyeva Feruza Khasanbayevna,
Toshkent shahridagi
"Tashkent International Pre-K" nodavlat
ta'lim muassasasi direktori

OLIY TA'LIM TIZIMINI IJTIMOIY BOSHQARISHNING MOHIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini ijtimoiy boshqarishning mohiyati va ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Ijtimoiy tizimlar nazariyasi, yangi davlat boshqaruvi konsepsiyasi va inson kapitali nazariyasi kabi nazariy yondashuvlarni tahlil qilish orqali "ijtimoiy boshqaruv" tushunchasining mazmuni ochib bergan. Maqolada oliy ta'limni ijtimoiy boshqarishda qaror qabul qilish, motivatsiya va nazorat-baholash tizimlari hamda uning ijtimoiy, kommunikativ, iqtisodiy va innovatsion funksiyalari ko'rib chiqilgan. Qiyosiy tahlil, so'rovnoma, intervyu va modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy boshqaruv, oliy ta'lim tizimi, inson kapitali nazariyasi, institutsional avtonomiya, boshqaruv funksiyalari, strategik boshqaruv, motivatsiya tizimi, menejment nazariyasi, davlat boshqaruvi.

СУЩНОСТЬ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье исследуются сущность и научно-теоретические основы социального управления системой высшего образования. Посредством анализа таких теоретических подходов, как теория социальных систем, концепция нового государственного управления и теория человеческого капитала, раскрывается содержание понятия «социальное управление». В статье рассматриваются системы принятия решений, мотивации, контроля и оценки в социальном управлении высшим образованием, а также его социальные, коммуникативные, экономические и инновационные функции. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, анкетирования, интервью и моделирования.

Ключевые слова: социальное управление, система высшего образования, теория человеческого капитала, институциональная автономия, функции управления, стратегическое управление, система мотивации, теория менеджмента, государственное управление.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

THE ESSENCE AND SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article examines the essence and scientific and theoretical foundations of social management in the higher education system. By analyzing such theoretical approaches as social systems theory, the concept of new public management, and human capital theory, the study reveals the content of the concept of "social management." The article considers decision-making, motivation, and monitoring and evaluation systems in the social management of higher education, as well as its social, communicative, economic, and innovative functions. The study employs the methods of comparative analysis, survey, interview, and modeling.

Keywords: social management, higher education system, human capital theory, institutional autonomy, management functions, strategic management, motivation system, management theory, public administration

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida oliy ta'lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tizimning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, uni boshqarish mexanizmlarining ilmiy asoslanganligi, moslashuvchanligi, shaffofligi hamda jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga mutanosibligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limni boshqarish masalasi zamonaviy boshqaruv fanining alohida va istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarining takomillashuvi, bir tomondan, davlat siyosati va institutsional boshqaruvning samaradorligini oshirishni, ikkinchi tomondan esa ta'lim jarayonining bevosita ishtirokchilari — professor-o'qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar, ilmiy jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Shu sababli oliy ta'limni faqat ma'muriy yoki iqtisodiy boshqaruv obyekti sifatida emas, balki ko'plab subyektlarning o'zaro ta'siri asosida rivojlanadigan murakkab ijtimoiy tizim sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasidagi zamonaviy islohotlari ham boshqaruvning raqamlashtirilishi, ta'lim sifati va natijadorligini oshirish, oliy ta'lim tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish hamda talabalarning fanlarni o'zlashtirish va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmonida oliy ta'lim tashkilotlarida raqamlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Mazkur jarayonlar oliy ta'limni boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, boshqaruv qarorlarini obyektiv ma'lumotlar asosida qabul qilish va monitoring tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy faoliyatini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqqan holda tashkil etish, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish hamda mavjud tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bunday yondashuv oliy ta’lim muassasasini nafaqat bilim beruvchi tashkilot, balki hududiy va milliy rivojlanishning intellektual, ilmiy va innovatsion markazi sifatida qarash imkonini beradi.

Bugungi kunda oliy ta’limning vazifasi nafaqat muayyan kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuini shakllantirish, balki shaxsning doimiy ravishda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy voqelikda o‘z o‘rnini topishi, mustaqil fikrlashi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va ijtimoiy mas’uliyatini namoyon etishi uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Bu esa ta’lim jarayonida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi, kengroq ma’noda esa shaxs va ta’lim tizimi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarining shakllanishini nazarda tutadi. Mazkur munosabatlar uzluksiz ta’lim, mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va hayot davomida ta’lim olish tamoyillarida o‘z ifodasini topadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ijtimoiy boshqaruv tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotining turli sohalari, jumladan, iqtisodiyot, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy institutlarning faoliyatini maqsadli tartibga solish, muvofiqlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar majmuini anglatadi. Uning asosiy xususiyati boshqaruv jarayonining markazida inson, uning ehtiyojlari, manfaatlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari turishidir.

Boshqaruv nazariyasining klassik vakillaridan biri T. Parsons tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional tahlil konsepsiyasida ijtimoiy tizim o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi funksional kichik tizimlar majmui sifatida talqin qilinadi [1]. Mazkur yondashuvda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va integratsiyaviy jarayonlarning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ushbu nazariy yondashuvni oliy ta’lim tizimiga tatbiq etish natijasida universitetni jamiyat, davlat, mehnat bozori, fuqarolik jamiyati va oila kabi ijtimoiy institutlar bilan uzviy aloqada faoliyat yurituvchi ochiq tizim sifatida tavsiflash mumkin.

N. Luman ijtimoiy tizimlar nazariyasini o‘z-o‘zini tashkil etuvchi va o‘z-o‘zini takror ishlab chiqaruvchi tizim sifatida talqin qiladi. Bunday tizimda boshqaruv faqat tashqi buyruq va ko‘rsatmalar orqali emas, balki tizimning ichki kommunikatsiya mexanizmlari orqali amalga oshiriladi [2]. Mazkur nazariy qarash zamonaviy oliy ta’lim muassasalarining institutsional va moliyaviy mustaqilligi masalasida alohida ahamiyatga ega. Chunki universitetlarning samarali faoliyati ularni davlat tomonidan to‘liq va markazlashgan tarzda boshqarishdan ko‘ra, ma’lum darajadagi institutsional avtonomiya, o‘zini-o‘zi tartibga solish va ichki boshqaruv mexanizmlarining rivojlanganligi bilan bevosita bog‘liq.

Oliy ta’limni ijtimoiy boshqarishning mohiyatini ochib berishda davlat boshqaruvi nazariyasi doirasida shakllangan yangi davlat boshqaruvi (New Public Management) konsepsiyasi ham muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu

konsepsiya XX asrning 1980-yillarida, avvalo, Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiyada shakllanib, keyinchalik boshqa mamlakatlarning davlat boshqaruvi tizimlariga, jumladan, ta'lim sohasiga ham kirib bordi. Uning asosiy g'oyasi davlat tashkilotlari faoliyatiga bozor mexanizmlari, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, raqobat, samaradorlik va xizmatlardan foydalanuvchi manfaatlariga yo'naltirilganlik tamoyillarini joriy etishdan iborat.

Oliy ta'lim tizimida ushbu yondashuv universitetlarning institutsional va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, ularning faoliyatini aniq natija ko'rsatkichlari asosida baholash, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish hamda raqobatbardosh muhitni shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. Biroq oliy ta'limni faqat bozor mexanizmlari asosida boshqarishning cheklangan jihatlari ham mavjud. Chunki ta'lim xizmatining ijtimoiy ahamiyati, uning ijobiy tashqi samaralari va uzoq muddatli natijalarga yo'naltirilganligi bozorning qisqa muddatli samaradorlik mezonlariga to'liq mos kelmaydi.

Shu sababli oliy ta'lim kontekstida ijtimoiy boshqaruv davlat boshqaruvi, institutsional menejment va jamoatchilik ishtirokining o'zaro uyg'unligiga asoslangan murakkab boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladi. Bunday modelda davlat strategik maqsadlarni belgilovchi va muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida ishtirok etsa, oliy ta'lim muassasalari bevosita boshqaruv va ta'lim xizmatlarini tashkil etuvchi institutsional subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Jamoatchilik, talabalar, professor-o'qituvchilar va ish beruvchilar esa ta'lim sifatini baholash, takliflar ishlab chiqish va ijtimoiy ehtiyojlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

"Ijtimoiy boshqaruv" tushunchasi jamoatchilik boshqaruvi tushunchasiga yaqin bo'lsa-da, mazmun jihatidan undan kengroqdir. Chunki ijtimoiy boshqaruv kishilarning birgalikdagi faoliyatining barcha shakllarini, jumladan, ishlab chiqarish, ta'lim, ilmiy, madaniy va boshqa faoliyat turlarini qamrab oladi. Ijtimoiy boshqaruv jamiyat a'zolarining umumiy xohish-irodasini namoyon etish, ularning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda insonlar tomonidan o'z hayoti va faoliyatini tashkil etish uchun shakllantirilgan institutlar faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq [3].

Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy boshqaruv faqat davlat boshqaruvi yoki klassik menejment bilan cheklanmaydi. Unda jamoatchilik fikri, talabalar ehtiyojlari, professor-o'qituvchilarning kasbiy manfaatlari, ish beruvchilar talablari, mehnat bozori tendensiyalari va xalqaro akademik hamjamiyat standartlari ham muhim tartibga soluvchi omillar sifatida ishtirok etadi. Shu jihatdan ijtimoiy boshqaruv oliy ta'lim tizimining ichki va tashqi muhitini o'zaro bog'lovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'limni ijtimoiy boshqarish nazariyasida inson kapitali nazariyasi ham muhim o'rin egallaydi [4]. Mazkur nazariyaga ko'ra, ta'limga sarflanadigan mablag' va vaqt insonning bilim, ko'nikma va malakasini oshirish orqali uning iqtisodiy unumdorligini yuksaltiruvchi investitsiya sifatida qaraladi. Shu sababli oliy ta'limni boshqarishda ta'limga yo'naltirilayotgan resurslarning samaradorligi,

bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va inson kapitalining rivojlanish darajasini hisobga olish muhimdir.

Inson kapitali nazariyasi oliy ta'limni ijtimoiy boshqarish siyosatining makroiqtisodiy asoslarini tushuntirishda, xususan, davlat tomonidan ta'limga ajratiladigan moliyaviy resurslarning hajmi va taqsimlanishini asoslashda keng qo‘llaniladi. Bunda oliy ta'limga sarflangan investitsiya nafaqat alohida shaxsning daromadini oshiradi, balki jamiyatning innovatsion salohiyati, mehnat unumdorligi va iqtisodiy raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Sh. Alimov oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida universitet mustaqilligini kengaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini ko‘rib chiqqan [5]. H. Xodiyev esa kadrlar boshqaruvi nazariyasi va amaliyotining milliy xususiyatlarini, jumladan, oliy ta'lim tizimidagi menejment jarayonlarini tadqiq etgan [6]. Mazkur tadqiqotlar oliy ta'limni boshqarishda inson omili, institutsional mustaqillik va strategik yondashuvning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Oliy ta'limni ijtimoiy boshqarishning asosiy tarkibiy elementlari sifatida qaror qabul qilish tizimi, kommunikatsiya mexanizmlari, motivatsiya tizimi hamda nazorat va baholash tizimini ajratib ko‘rsatish mumkin. Qaror qabul qilish tizimi boshqaruvning turli pog‘onalarida vakolat va mas'uliyatlarning taqsimlanishini belgilaydi. Samarali boshqaruv sharoitida qarorlarning markazlashuv darajasi bilan quyi bo‘g‘inlarning tashabbuskorligi o‘rtasida muayyan muvozanat ta'minlanishi lozim.

Kommunikatsiya mexanizmlari boshqaruv subyektlari o‘rtasida axborot almashinuvi, fikr-mulohaza va teskari aloqaning rasmiy hamda norasmiy shakllarda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, raqamli boshqaruv sharoitida axborotning tezkorligi, aniqligi va ochiqligi boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Motivatsiya tizimi professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish vositalarini o‘z ichiga oladi. Bunda ish haqi va mukofotlar bilan bir qatorda kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, akademik erkinlik, e'tirof etish va lavozim bo‘yicha o‘sish imkoniyatlari ham muhim motivatsion omillar hisoblanadi.

P. Druker tomonidan ishlab chiqilgan maqsadlar bo‘yicha boshqaruv konsepsiyasi ham oliy ta'limni ijtimoiy boshqarish amaliyotida samarali qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nazariy yondashuvlardan biridir. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, tashkilot samaradorligi faqat rahbariyat tomonidan yuqoridan beriladigan buyruqlar orqali emas, balki xodimlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan aniq, o‘lchanadigan va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlar orqali ta'minlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida strategik va maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash, ularning bajarilishini muntazam monitoring qilish hamda natijalarni baholash boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim tizimini ijtimoiy boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash maqsadida o'quv-metodik hamda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, so'rovnoma, intervyu, modellashtirish va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali ijtimoiy boshqaruvning turli nazariy konsepsiyalari o'zaro solishtirildi va ularning oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlandi. So'rovnoma va intervyu usullari ta'lim jarayoni ishtirokchilarining boshqaruv jarayonlariga munosabati, mavjud muammolar va takomillashtirishga doir takliflarini o'rganishga xizmat qildi.

Modellashtirish usuli oliy ta'lim tizimida davlat, universitet, professor-o'qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini tizimlashtirish imkonini berdi. Matematik-statistik tahlil esa tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarning ishonchliligi va o'zaro bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Turli tadqiqotchilar tomonidan "ijtimoiy boshqaruv" tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, mazkur tushunchaning asosini tizimli barqarorlik, inson resurslaridan samarali foydalanish, manfaatlarni muvofiqlashtirish, kommunikatsiya va boshqaruv subyektlarining o'zaro hamkorligi tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy boshqarishni faqat ma'muriy boshqaruv jarayoni sifatida emas, balki turli ijtimoiy subyektlarning manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan kompleks jarayon sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqot doirasida oliy ta'lim tizimini ijtimoiy boshqarish deganda oliy ta'lim muassasasi rahbariyati, akademik jamoa, talabalar, ish beruvchilar, davlat organlari, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida ta'lim tizimining ijtimoiy maqsadlariga — sifatli ta'lim berish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish, mehnat bozori ehtiyojlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan maqsadli va tizimli faoliyat tushuniladi.

Oliy ta'limni boshqarishda muassasaning bajaradigan funksiyalari unda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Boshqaruvning samaradorligi faqat tashkiliy yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ta'lim muassasasidagi ijtimoiy munosabatlarning sifati, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlik, akademik muhit, ijtimoiy mas'uliyat va innovatsion faollik darajasi bilan ham belgilanadi.

Oliy ta'limning ijtimoiy funksiyasi ilmiy bilimlarga asoslangan kasbiy va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, jamiyatda e'tirof etilgan ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni yangi avlodga yetkazishdan iborat. Universitet shaxsning nafaqat kasbiy, balki fuqarolik va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim institut hisoblanadi.

Kommunikativ funksiyasi ilmiy bilimlar va axborotni yaratish, uzatish, qayta ishlash hamda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ilmiy-kommunikativ aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy raqamli muhitda ushbu funksiya yanada

kengayib, elektron ta’lim platformalari, raqamli ma’lumotlar bazalari va onlayn kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni ham qamrab olmoqda. Iqtisodiy funksiyasi xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari va kasbiy faoliyat sohalari uchun zarur bo‘lgan inson resurslarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va mavjud mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Oliy ta’lim muassasasi mehnat bozori va iqtisodiyot o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi institut sifatida ish beruvchilar ehtiyojini ta’lim mazmuniga integratsiya qilishi lozim. Innovatsion funksiyasi yangi nazariy bilimlarni yaratish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va jamiyatning rivojlanish muammolariga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishni anglatadi. Shu jihatdan universitetlarning innovatsion salohiyati nafaqat ta’lim sifati, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy boshqarishning samaradorligini ta’minlashda davlat va institutsional boshqaruv o‘rtasidagi vakolatlarning oqilona taqsimlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Haddan tashqari markazlashgan boshqaruv universitetlarning tashabbuskorligi va innovatsion faolligini cheklashi mumkin bo‘lsa, nazoratsiz institutsional mustaqillik esa yagona strategik maqsadlarning zaiflashishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois zamonaviy oliy ta’lim boshqaruvida akademik erkinlik, institutsional avtonomiya, hisobdorlik va jamoatchilik nazorati o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarur.

Shuningdek, oliy ta’limni ijtimoiy boshqarishning muhim sharti — teskari aloqaning samarali ishlashidir. Talabalar va professor-o‘qituvchilarning fikrlarini muntazam o‘rganish, ish beruvchilarning talablarini ta’lim dasturlariga integratsiya qilish, bitiruvchilarning bandligi va kasbiy faoliyatini monitoring qilish boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslanganligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, raqamlashtirilgan nazorat va monitoring tizimlari boshqaruvning shaffofligi va tezkorligini oshirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimini ijtimoiy boshqarish ko‘p qirrali, ko‘p subyektli va dinamik ijtimoiy jarayon bo‘lib, uning ilmiy-nazariy asoslari sotsiologiya, menejment nazariyasi, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllanadi. Mazkur boshqaruvning markazida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlash, ilmiy va innovatsion salohiyatni oshirish hamda oliy ta’limning jamiyat ehtiyojlariga mosligini ta’minlash vazifalari turadi.

Oliy ta’limni ijtimoiy boshqarishning samarali modeli davlat boshqaruvi, institutsional avtonomiya, jamoatchilik ishtiroki, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik, raqamli monitoring va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining uyg‘unligiga asoslanishi lozim. Bunday yondashuv universitetlarning ichki boshqaruv salohiyatini kuchaytirish bilan birga, ularning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini ham oshiradi.

Shuningdek, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy boshqaruvni takomillashtirish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni

kengaytirish, professor-o‘qituvchilar va talabalarni boshqaruv jarayonlariga faol jalb etish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, institutsional avtonomiyani hisobdorlik mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu nazariy asoslarni chuqur o‘zlashtirish oliy ta’limni boshqarishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan mamlakatlar tajribasida sinovdan o‘tgan boshqaruv modellarini milliy sharoitga tanqidiy va ijodiy ravishda moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, oliy ta’limni ijtimoiy boshqarishning milliy modelini shakllantirishda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, hududiy ehtiyojlari, mehnat bozori talablari va zamonaviy global ta’lim tendensiyalarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parsons T. The Social System. — Glencoe, Illinois: The Free Press, 1951. — 575 p.
2. Luhmann N. Social Systems. — Stanford: Stanford University Press, 1995. — 627 p.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Ijtimoiy boshqaruv // O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. — Elektron manba. — Murojaat sanasi: 16.08.2026.
4. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: Columbia University Press, 1964. — 187 p.
5. Schultz T. W. Investment in Human Capital // American Economic Review. — 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.
6. Alimov Sh. Oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv. — Toshkent, 2020.
7. Xodiev H. Kadrlar boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent, 2017.
8. Drucker P. F. The Practice of Management. — New York: Harper & Brothers, 1954. — 404 p.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694